

ABULG‘OZI BAHODIRXON ASARLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI.

*Ochilova Sarvinoz Husan qizi,
ToshDO‘TAU, O‘FF,
Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abulg‘ozi Bahodirxon hayoti va uning “Shajarayi Turk” asari yuzasidan fikr yuritildi. Asardan parcha tanlab, morfologik tahlilga tortildi, hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlari nuqtayi nazaridan qiyoslab o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Abulg‘ozi Bahodirxon, Shajarayi Turk, morfologiya.

Абстрактный. В данной статье рассматривается жизнь Абулгози Бахадирхана и его произведение «Шаджарайи Тюрк». Выделен фрагмент произведения, подвергнут морфологическому анализу, сопоставлен и изучен с точки зрения норм современного узбекского литературного языка.

Ключевые слова: Абулгози Бахадирхан, Шаджарайи Тюрк, морфология.

Abstract. This article discusses the life of Abulghozi Bahadirkhan and his work "Shajarayi Turk". A fragment of the work was selected, subjected to morphological analysis, compared and studied from the point of view of the standards of the current Uzbek literary language.

Key words: Abulghozi Bahadirkhan, Shajarayi Turk, morphology.

Xiva xoni Abulg‘ozi Bahodirxon hijriy 1012 (milodiy 1603)-yil rabbiyul avval oyining 15-kunida Urganch shahrida tug‘ilgan. U o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan. Abulg‘ozi tarix va adabiyotni puxta egallab, davrining allomasi darajasiga ko‘tarildi. Bu haqda muallifning o‘zi “Shajarai turk” asarida tangri uch hunar berganligini yozadi: sipohigarlik; barcha ash‘orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy hamda turkiy lug‘atlarning ma‘nosini bilmaklik; Odam Atodan to bu damgacha Arabiston, Eron, Turon va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari, umrlari va saltanatlarini bilmaklik.

Abulg‘ozi Bahodirxon siyosiy, harbiy ishlar bilan cheklanib qolmay, ilm-fan, san‘at va adabiyot bilan ham shug‘ullanadi. Uning “Shajarayi tarokima”, “Shajarayi turk” asarlari XVI-XVII asrlar Xorazm tarixi, o‘sha davr tilini o‘rganishda alohida o‘rin tutadi.

“Shajarayi turk” asari 1663-1664-yillarda bitilgan. so‘z boshi va 9 bobdan iborat. Asar Abulg‘ozi vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Anushaxon topshirig‘iga muvofiq Mahmudbiy ibn mulla Muhammad Urganchiy tomonidan nihoyasiga yetkazilgan, Qozonda Rumyansev (1825), Sablukov (1854). Demezov (1871)lar tomonidan

litografik usulda nashr ettirilgan. Asarning yettidan ortiq qo'lyozmasi mavjud. Ular Toshkent, Sankt-Peterburg va Ashxobodda saqlanadi. Asarda o'z sulolasining tarixini, shuningdek, Odam Atodan boshlab insoniyat, xususan, turkiy xalqlar, shajaralar haqida ma'lumot berishni asosiy maqsad qilgan.

“Shajarayi turk” asar onomastikasini tadqiq etish bo'yicha filologiya fanlar doktori Turdibekov Mo'minTo'rayevich ham ilmiy ish olib borganlar. Ushbu ilmiy ishning yangiligi shundaki, XVII asr yozma yodgorligi “Shajarayi turk” asari onomastikasi birinchi marta monografik tarzda tadqiq qilindi. “Shajarayi turk” asarining tarixiy, badiiy hamda til xususiyatlari yuzasidan ham ba'zi mulohazalar bildirilgan. Ammo bular orasida S. N. Ivanov, X. Xudoynazarov olib borgan ishlar tahsinga loyiqdir.¹

Quyida “Shajarayi Turk” asarning ikkinchi bobi “Mo'g'ulxonning zikri to Chingizxonning dunyoga kelganicha” deb nomlangan qismidan “O'g'uzxonning Eron va Shom va Misir sari yurganining zikri” qismigacha bo'lgan matndan parcha tahlil qilindi. Bu tahlil orqali Abulg'ozzi Bahodirxon ijodining til xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Asarning morfologik tahlili

Abulg'ozziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida, turdosh otlar guruhiga kiruvchi *ota, ona* singari so'zlar ishlatilgan bo'lib, ular bugun ham o'z shakl va ma'nosini yo'qotmagan. Bundan tashqari, shaxs otlaridan *qiz, o'g'lon, musulmon* kabi so'zlar qo'llangan. *Qiz* va *o'g'lon* so'zlari yoshiga ko'ra nomlanadi. *O'g'lon* so'zi hozirgi kunda badiiy uslubda qo'llanadi. *Qoraxon* “**xon**” unvoni bilan birga *tavg'achxon, arslonxon, bug'roxon* kabi faxriy unvonlar bilan ham ulug'langan. *Qoraxon* so'zining lug'aviy ma'nosi esa turkiy qabilalarda “*ulug'*”, “*buyuk*” deb nomlangan.

Asarda **sifat** so'z turkumiga oid quyidagi misollarni ko'rish mumkin:

To'yga kelgan ulug' va kichik barcha o'g'lonning bu so'ziga tang qoldilar.

M: *ulug'*, *kichik* kabi so'zlar. *Ulug'* - katta so'ziga nisbatan ishlatilgan .

Xususiyatni bildiruvchi sifatlarga misollar: *qayg'uli*, *eski*, *sodda*.

Rangni bildiruvchi: *qora*.

Misol: *Qish bo'lg'anda Qora qum va Sir suvining yoqasini qishlar edi.*

“Shajarayi Turk” asaridagi son so'z turkumi hozirgi o'zbek adabiy tilidagi son so'z turkumi bilan farq qilmaydi. Masalan, sanoq sonlar: *To'rt o'g'li bor edi.*

Tartib sonlar: *Avvalg'i – Qoraxon, ikkinchi – O'zxon, uchinchi – Kuzxon, to'rtinchi – Ko'rxon.*

Jamlovchi sonlar: *to'qqizdan*

Olmosh so'z turkumiga oid so'zlar:

¹ Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. “Nodirabegim” Nashriyoti, Toshkent 2021

Belgilash olmoshi: *barcha, har kim.*

Kishilik olmoshi: **Men musulmon, ul kofir.**

III shaxs kishilik olmoshi: *ana, ular, alar.*

O'zlik olmoshi: **O'zi urushda o'ldi.**

Fe'l so'z turkumi: *tang* (-lol qoldirmoq), *ma'qul bo'lg'ay* (vasiyat qildi). *Yaradin o'ldi* (o'q tegib yarador bo'lib o'ldi).

Ravish so'z turkumi:

Payt ravishlari: *Har kecha ul o'g'lon onasining tushiga kirib, aytur erdi.*

Miqdor ravishlari: *Tatar xoni ko'p cherik bilan kelib urushti.*

Sifatdosh: *-qan, -g'an, -gan "bo'lgan"*

Ravishdosh: *-ib* shakli, **"yarib"**.

Shart mayli: *-sa* shakli, **"aytsa, bo'lsa"**.

Yordamchi so'zlar:

Ko'makchilar: *uchun, sari* (sof ko'makchilar).

Misollar: *Ug'uzxon bu aytilg'an viloyatlarning barchasig'a dorug'alar qo'yub, Samarqand sari yurdi. Aning uchun ul yerlarni Dashti Qipchoq derlar.*

Bog'lovchilar: *va, birlan*(biriktiruv bog'lovchilari), *agar*(shart bog'lovchi)

Misollar: *Toshkent va Samarqand va Buxoro podshohlari sarf tortib urusha bilmadilar. Agar otasi musulmon bo'lg'onin eshitsa, o'g'li o'lturur.*

Asardan berilgan parchada ushbu yuklamalarni uchratamiz: *-da, ham.* (kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari)

Ul qiz ham qabul qilmadi.

Andin ilgari oti-da yo'q erdi, o'zi-da yo'q erdi.

Asarda chiqish kelishigi **-din**, jo'nalish kelishigi **-ga, -g'a, -qa** kabi affikslarga ega, boshqa kelishiklarda deyarli farq yo'q: *tuproqdin, atadin, sizlarga, xatga xalqqa.* Xarakterli xususiyat shundaki, tushum kelishigining **-ni, -n** affikslari ham qayd qilinadi: *kelinlarin, xotunlarni.*

Asarning morfologik tahlilidan shuni ko'rish mumkinki, undagi davr tili hozirgi o'zbek adabiy tili unsurlari bilan ko'p o'rinlarda mos keladi. Bu esa, albatta, asar tilining xalq uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Undagi ayrim qo'shimchalar hamda son, fe'l, olmosh kabi so'z turkumlaridagi bir xillik asarni morfologik tahlil qilishda qulaylik bo'lishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdushukurov B. O'zbek tili tarixi. "Nodirabegim" nashriyoti, Toshkent-2021
2. Shajarayi Turk. Cho'lpon nashriyoti, Toshkent-1992